# XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
# Q A R O R I

2023 - yil 27 - fevral VI-59-18-4-58-K/23 Qamashi tuman hokimligi

## Qamashi tumanidagi Jonbo‘zsoy mahallasi nomini qayta nomlash to‘g‘risida

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan mahallani qayta nomlash to‘g‘risidagi Qamashi tuman hokimligiga kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 31-avgustdagi 6-son yig‘ilish bayoni, Qamashi tuman hokimining Geografik obektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 6-fevraldagi 15-00259-son ekspert xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 6-fevraldagi 15-00259-son ekspert xulosasiga asosan Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Qamashi tumanida qayta nomlanayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Bekmurzayev) bir hafta muddatda tuman hududidagi qayta nomlangan geografik obyektning

nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklansin.

4. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolar yig‘ini raisiga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Meyliyev) qayta nomlangan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (Haydarov), Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Omonova) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Kengash raisi** **B.Tog‘ayev**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2023 yil 27 fevraldagi
VI-59-18-4-58-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Qamashi tumanida qayta nomlanayotgan geografik obyektlarning

# RO‘YXATI

| T/r | Geografik obektning turi | Geografik obektning bog‘lanishi | Geografik obektning amaldagi nomi | Komissiya tomonidan berilgan taklif | Ekspert komissiyasining xulosasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Mahalla | Qamashi tumani | Jonbo‘zsoy | Guliston | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |